

**INGLIZ VA O‘ZBEK MEDIA DISKURSIDA SIYOSIY
TERMINLARNING MANIPULYATIV VA PERSUAZIV FUNKSIYALARI**

G‘ulomova Shahnoza Axmedovna

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik,
chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik*

Ilmiy rahbar: Kasimova S.

Annotatsiya

Quyidagi maqolada ingliz va o‘zbek ommaviy axborot vositalarida foydalanadigan siyosiy terminlarning manipulyativ va persuaziv funksiyalari qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o‘rni hamda siyosiy kommunikatsiyada til birliklarining ta’sir kuchi bilan baholanadi. Mazkur maqolada siyosiy terminlarning semantik, pragmatik va funksional xususiyatlari yoritilib, ularning media matnlarda qo‘llanish jarayonida qanday manipulyativ strategiyalarni amalga oshirishi hamda auditoriyani ishontirish (persuaziya) mexanizmlarini shakllantirishdagi roli aniqlanadi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, diskursiv tahlil va lingvopragmatik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek media diskursida siyosiy terminlar nafaqat axborot uzatish quroli, hamda kuchli ideologik instrument kuchi tarzida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ingliz ommaviy axborot tizimida manipulyatsiya ko‘proq yashirin hamda bilvosita shaklda ifodalansa, o‘zbek media diskursida u nisbatan ochiq va normative xarakter bilan ifodalanadi.

Quyidagi tadqiqot natijalari siyosiy lingvistika, media diskurs tahlili hamda qiyosiy tilshunoslik yo‘nalishlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *media diskurs, ommaviy axborot vositalari, siyosiy terminologiya, manipulyatsiya, persuaziya, lingvopragmatika, qiyosiy tahlil, diskurs tahlili, ideologik ta’sir, semantik xususiyatlar, kommunikativ strategiyalar.*

Abstract

This article presents a comparative linguistic analysis of the manipulative and persuasive functions of political terminology in English and Uzbek media discourse. The relevance of the study is determined by the growing role of mass media in shaping public opinion and the increasing impact of linguistic units in political communication. The paper examines the semantic, pragmatic, and functional features of political terms and identifies how they operate as tools of manipulation and persuasion within media texts.

The research employs comparative analysis, discourse analysis, and linguo-pragmatic approaches. The findings reveal that political terminology in both English and Uzbek media discourse functions not only as a means of information transmission but also as a powerful instrument of ideological influence. Furthermore, while manipulation in English media discourse tends to be more implicit and subtle, it appears relatively explicit and normative in Uzbek media discourse.

The results of this study contribute to the fields of political linguistics, media discourse analysis, and comparative linguistics, offering both theoretical insights and practical implications for further research.

Keywords: *media discourse, political terminology, manipulation, persuasion, linguo-pragmatics, comparative analysis, discourse analysis, ideological influence, semantic features, communicative strategies.*

Zamonaviy globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borib, nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ijtimoiy ongning shakllantiruvchi, siyosiy qarashlarni yoʻnaltiruvchi va ideologik taʼsirni amalga oshiruvchi muhim kommunikativ mexanizm sifatida namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, media diskurs doirasida qoʻllaniladigan til birliklari, xususan siyosiy terminlar, oddiy nominativ funksiyadan tashqari, kuchli pragmatik va taʼsir etuvchi xususiyatlarga ega boʻlib, ular orqali muayyan ijtimoiy-siyosiy voqealar talqin qilinadi, baholanadi va auditoriyaga maʼlum nuqtai nazardan yetkaziladi.

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, bugungi kunda siyosiy munosabatlar jarayonida tilning manipulyativ va persuaziv imkoniyatlaridan va xususiyatlaridan keng qoʻllanilmoqda, bu esa jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy qarorlarni asoslash shuningdek, muayyan ideologik qarashlarni singdirishda salmoqli roʻl oʻynayapti. Ayniqsa, ingliz va oʻzbek tillaridagi media diskursni qiyosiy oʻrganish orqali turli lingvokulturologik muhitlarda siyosiy terminlarning qanday funksional yuklama bilan foydalanishini aniqlash uni kashf etish ayni tilshunoslikning muhim va kerakli masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi shundan iboratki, ingliz va oʻzbek media diskursida siyosiy terminlarning manipulyativ hamda persuaziv funksiyalarini aniqlash, ularning lingvopragmatik imkoniyatlarini ochib berish va qiyosiy tahlil asosida umumiy va farqli jihatlarni belgilashdan iborat va ayni maqsadga erishish uchun quyidagi funksiyalar joriy qilindi: siyosiy terminologiyaning nazariy asoslarini oʻrganish; media diskursning lingvistik xususiyatlarini aniqlash; manipulyativ va persuaziv strategiyalarning asosiy koʻrinishlarini oʻrganish va uni muhokama qilish; ingliz va oʻzbek media matnlarida siyosiy terminlarning qoʻllanish xususiyatlarini va imkoniyatlarini solishtirish yuzasidan oʻrganish.

Tadqiqotning obykti sifatida zamonaviy ingliz va o'zbek media diskursi tanlangan bo'lsa, predmeti esa ushbu diskursda qo'llaniladigan siyosiy terminlarning manipulyativ va persuaziv funksiyalari hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, diskursiv tahlil, semantik va lingvopragmatik usullaridan keng qo'llanildi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ingliz va o'zbek media diskursida siyosiy terminlarning nafaqat semantik, hamda ularning manipulyativ va persuaziv funksiyalari kompleks tarzda qiyosiy aspektda o'rganiladi va muhokama qilinadi, hamda ularning auditoriya tafakkuriga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari aniqlashtiriladi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, siyosiy lingvistika, ommaviy axborot vositalari tahlili va qiyosiy tilshunoslik sohalariga yangicha yondashuvlar olib kirish bilan belgilanadi, amaliy ahamiyati esa media matnlarni tahlil qilish, siyosiy kommunikatsiyani o'rganish hamda tarjima jarayonlarida siyosiy terminlarning adekvat qo'llanishini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishda namoyon bo'ladi.

Siyosiy terminologiya va ommaviy axborot vositalarini o'rganish hozirgi tilshunoslikda juda faol rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu sohada ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan salmoqli ilmiy izlanishlar qilinmoqda. Ayniqsa, siyosiy diskursning lingvistik xususiyatlari va imkononiyatlari undagi manipulyativ va persuaziv strategiyalar hamda tilning ideologik funksiyalari masalalari keng qamrovda tadqiq etilgan.

G'arb tilshunosligida siyosiy diskursni tahlil qilishda kritik diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis) kerakli va juda muhim metodologik asos sifatida shakllangan, hamda quyidagi yo'nalishda N. Fairclough, T.A. van Dijk va R. Wodak kabi olimlarning harakat natijalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ularning tadqiqotlarida til va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, diskurs orqali ijtimoiy tengsizlik va ideologiyaning ifodalanishi hamda manipulyativ strategiyalarning lingvistik mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Xususan, T.A. van Dijk siyosiy diskursni ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ko'rib, undagi manipulyatsiya jarayonlarini kognitiv yondashuv asosida izohlaydi.

P. Chilton hamda u kabi olimlar siyosiy terminlarning funksional xususiyatlarini tahlil qilib, ularning kommunikativ strategiyalar doirasida qanday ishlatilishini tahlil qilganlar. Ularning takidlashicha, siyosiy terminlar faqatgina voqelikni ifodalabgina qolmay, balki uni qayta konstruktsiya qiladi va auditoriyada muayyan tasavvurlarni rivojlantiribgina qolmay ularning shakllanishigaham tasir ko'rsatadi.

Manipulyatsiya va persuaziya masalalari ham lingvopragmatika doirasida keng tadqiq etilgan bo'lib, shu yo'nalishda til birliklarining yashirin va ochiq ta'sir mexanizmlari alohida e'tiborga olingan. E. Lassan, J. Charteris-Black kabi olimlar siyosiy nutqda metafora, eufemizm va boshqa stilistik vositalarning manipulyativ potensialini tahlil qilib, ularning auditoriya ongiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar.

O'zbek tilshunosligida ham media diskurs va siyosiy terminologiya masalalari masalalariga bag'ishlangan izlanishlaramalga oshirilgan va ularda asosan siyosiy leksikaning shakllanishi, rivojlanishi hamda milliy-madaniy xususiyatlari va imkoniyatlari ochib berilgan hisoblanadi. Lekin mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek media diskursida siyosiy terminlarning manipulyativ va persuaziv funksiyalarini qiyosiy aspektda kompleks o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar to'la darajada mavjud emasligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Ayni shu o'rinda quyidagi maqola mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda, siyosiy terminlarning lingvopragmatik xususiyatlarini va imkoniyatlarini yangicha yondashuv asosida o'rganishni o'z oldiga maqsad qiladi. Tadqiqotda siyosiy atamalarning semantik va funksional xususiyatlari va imkoniyatlari bilan bir qatorda, ularning media diskursdagi manipulyativ va persuaziv imkoniyatlari ham chuqur o'rganiladi, bu esa mazkur sohada mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Quyidagi ilmiy ishda ingliz va o'zbek media diskursida siyosiy terminlarning manipulyativ va persuaziv funksiyalarini aniqlash maqsadida kompleks metodlardan foydalanildi. Ilmiy izlanish metodologiyasi bir nechta o'zaro bog'liq ilmiy usullarga asoslanadi:

Birinchidan, chog'ishtirma tahlil metodi asosida ingliz va o'zbek tillaridagi media matnlar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlanadi, bunda siyosiy terminlarning qo'llanilish konteksti, semantik yuklamasi hamda funksional roli taqqoslaniladi.

Ikkinchidan, diskursiv tahlil usulidan foydalangan holda media matnlarning ichki tuzilishi, kommunikativ maqsadi hamda auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatish strategiyalari o'rganilib, ayni yondashuv siyosiy terminlarning nafaqat leksik birlik sifatidagi, balki diskursiv vosita sifatidagi rolini ochib berishga asos bo'ladi.

Uchinchidan, lingvopragmatik metod asosida siyosiy terminlarning ma'no qatlamlari, konnotativ xususiyatlari hamda ularning manipulyativ va persuaziv imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bu esa terminlarning real kommunikativ vaziyatdagi funksional yuklamasini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilidagi (BBC, CNN va boshqa xalqaro OAV) hamda o'zbek tilidagi (milliy axborot portallari va rasmiy nashrlar) media matnlari tanlab olindi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek media diskursida siyosiy terminlar ko'p funksiyali xarakterga ega bo'lib, ular orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki muayyan ideologik ta'sir ham amalga oshiriladi. Ingliz tilidagi m ommaviy axborot vositalarining manipulyativ strategiyalar ko'pincha yashirin lingvistik vositalar orqali ifodalanadi, bunda eufemizmlar, metaforalar hamda neytral ko'rinishdagi terminlar yordamida voqelik qayta talqin qilinadi. Masalan, "military intervention" termini ko'pincha agressiv harakatlarni neytral shaklda

ifodalash uchun qo'llaniladi, bu esa auditoriyaning voqeani qabul qilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek ommaviy axborot vositalarida siyosiy atamalarning ishlatilishi ko'p holatlarda rasmiy va normativ xarakterga ega bo'ladi va unda persuaziv strategiyalar ustunlik qiladi. "Islohotlar", "taraqqiyot", "barqarorlik" kabi terminlardan foydalangan holda ijobiy semantik maydon ishlab chiqiladi va auditoriyada ijobiy munosabat va fikrni shakllantiriladi.

Shu bilan birga har ikkila til tizimida ham selektiv nominatsiyadan salmoqli foydalaniladi va bunda voqelikning faqat muayyan jihatlari ochib beriladi hamda qolganlari esa e'tibordan chetda qoldiriladi. Ayni shu harakat esa manipulyatsiyaning muhim vositalaridan biri sifatida oshkor bo'ladi.

Ilgari olib borilgan izlanishlar shuni takidlaydiki, siyosiy terminlar media ommaviy axborot vositalarida faqatgina axborot berish vositasi sifatida emas, balki murakkab kommunikativ strategiyalarni amalga oshiruvchi asosiy lingvistik instrument va kuch sifatida ish olib boradi.

Ingliz media diskursida manipulyatsiya ko'proq diskursiv noziklik, implikatura va kontekstual yashirinlik orqali amalga oshirilsa, o'zbek media diskursida persuaziv strategiyalar ko'proq ochiq va rasmiy shaklda ifodalanadi. Ayni shu tafovutlar lingvokulturologik omillar, siyosiy tizimlar va kommunikativ an'analar yordamida nomoyon bo'ladi. Bundan tashqari, siyosiy terminlarning takroriy qayta va qayta ishlatilishi ularning auditoriya ongida va tafakkurida mustahkamlanishiga olib keladiva buning natijasida muayyan ideologik qarashlar doimiy shakllanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mazkur ilmiy izlanish natijalari ingliz va o'zbek media maydonida siyosiy atamalarning manipulyativ va persuaziv vazifalari muhim kommunikativ ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Aniqlanishicha, siyosiy atamalar nafaqat voqelikni ifodalaydi, hamda uni interpretatsiya qiladi, baholaydi va auditoriya ongiga va tafakkuriga ma'lum yo'nalishda ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Shu bilan birga, ingliz media diskursida manipulyatsiya ko'proq yashirin shaklda amalga oshirilsa, o'zbek media diskursida persuaziya ustunlik qilishi ko'p holatlarda kuzatildi.

Ilmiy izlanish natijalari siyosiy lingvistika va media diskurs tahlili sohalarida yangi ilmiy xulosalar chiqarish va kelgusida chuqurroq va mukammalroq izlanishlar olib borish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nida, Eugene A. *Toward a Science of Translating*. Leiden: E. J. Brill, 1964, pp. 12–45.
2. Levinson, Stephen C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983, pp. 23–70.

3. Fairclough, Norman. Discourse and Social Change. Cambridge: Polity Press, 1992, pp. 50–110.
4. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik.-Toshkent: O'qituvchi, 1979.-191 b.
5. Bolshoy akademicheskiy slovar russkogo yazyka / In-t lingvist. issled. RAN. - M.; SPb.: Nauka. - 2006. - 829 s.
6. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков: Учеб. Пособие для пед. ин-тов.-М.: Высш. шк., 1983.-267 с.
7. Бурлак С. А., Старостин С. А. Сравнительно-историческое Языкознание. М. 2005.
8. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi.-Toshkent: O'qituvchi, 1973.-283 b.
9. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.- 264 b.
10. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М., 2005.
11. Мейе А. Введение в сравнительно-историческое изучение индоевропейских языков, М.-Л., 2007 Русистика в СНГ: сборник / под ред.: Л. А. Вербицкой, В. Г. Костомарова. - СПб: Златоуст, 2002. - 220 с. 11. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik.-Toshkent: O'qituvchi, 1979.-256 b.
12. Xoshimov O'., Buranov J. Ingliz tili grammatikasining normativ kursi.-T.: O'qituvchi, 1989.-144 b.
13. Jo'rayev, N. Tarjimashunoslik asoslari. Toshkent: Noshir, 2015, 20–65-betlar.

Internet resurslar:

1. www.edu.uz
2. www.uzedu.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.teachingenglish.org.uk
5. www.usc.edu
6. www.inspringteachers.com
7. www.teachnet.org
8. www.alt-teachercert.org